

TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISHDA MOTIVATSIYANING ROLI

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
2-kurs tayanch doktoranti
Umarova Nigora Amirjon qizi
Telefon: +99890 3180789
Email: nirnazarova2991@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tilni o'rganishda, ayniqsa tinglab tushunish ko'nikmasini takomillashtirish jarayonida motivatsiyaning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning (multimedia vositalar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar) tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari motivatsiya bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qituvchining motivator sifatidagi roli va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, tinglab tushunish, raqamli texnologiyalar, integrativ yo'nalish, instrumental yo'nalish, ichki va tashqi motivatsiya, ta'lim jarayoni.

Globallashtirish davrida xorijiy tillarni o'rganish shaxsiy va kasbiy rivojlanishning muhim omiliga aylandi. Til o'rganish jarayonida to'rt asosiy ko'nikma, ya'ni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish muhim o'rin tutadi. Shulardan tinglab tushunish ko'nikmasi muloqotning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda samarali aloqa o'rnatish uchun zarurdir.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida til o'rganish jarayoni tubdan o'zgardi. Audio va video materiallar, podkastlar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq texnologik vositalarning mavjudligi o'z-o'zidan muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Ushbu jarayonda asosiy omil bu motivatsiyadir. Motivatsiya bu talabaning faolligi, qat'iyligi va o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatni belgilaydi.

Til o'rganishga bo'lgan motivatsiya tog'ga chiqishdagi motivatsiyaga o'xshaydi, u insonni harakatga undaydi va yo'nalish beradi. Garchi xorijiy tilni muvaffaqiyatli o'rganishda motivatsiyaning roli aniq bo'lsada uning qayerdan kelib chiqishi va qanday ishlashi hali ham muhokama qilinmoqda. Turli ilmiy sohalar: ujtimoiy psixologiya, kognitiv fanlar va sotsiologiya motivatsiyani turlicha ta'riflaydi va har biri unga turli jihatdan yondashadi. *Garsner* motivatsiyani quyidagi ikki asosiy yo'nalishga ajratadi: **Integrativ yo'nalish** – tilni o'rganish orqali u tilda so'zlashadigan odamlar bilan muloqot qilish va ularning madaniyati bilan tanishishni istash. **Instrumental yo'nalish** – tilni amaliy manfaatlar uchun o'rganish, masalan, yaxshi baholar, ish imkoniyatlari. Bu yo'nalishlar bir-birini inkor etmaydi va faqat ushbu yo'nalishlarga ega bo'lishning o'zi motivatsiya uchun yetarli emas. Ijtimoiy psixologik model til o'rganishni boshlash va davom ettirish sabablarini tushuntiradi, lekin u dars jarayonlari yoki ta'lim psixologiyasiga alohida e'tibor qaratmaydi. Shu sababli, keyinchalik quyidagi yangi yondashuvlar paydo bo'ldi:

- **O'zini belgilash nazariyasi (Self-determination theory)** – ichki va tashqi motivlarni 3 ta asosiy psixologik ehtiyoj (avtonomiya, kompetentlik, aloqadorlik) bilan bog'laydi.

- **Clementning ijtimoiy kontekst modeli** – yangi tilni o'zlashtirish orqali o'sishga intilish bilan birga, ona til va shaxsiy o'zlikni yoqotishdan qo'rquv o'rtasidagi ziddiyatni ko'rsatadi. U shuningdek, o'ziga ishonchni motivatsiyaning muhim omili sifatida ilgari suradi.

- **Foraging nazariyasi** (Schumann) – til o'rganish inson miyyasi tuzilmasiga bog'langan bo'lib, u atrof-muhitga moslashish va boshqalar bilan munosabatlar o'rnatish uchun shakllangan.

Vazifaga asoslangan motivatsiya (Task motivation) – muayyan topshiriqlarning (yopiq yoki ochiq, yakka yoki guruh bo'yicha shaklga yo'naltirilgan yoki ma'noga asoslangan) talabalarning motivatsiyasiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.[3]

Motivatsiya tushunchasining bunday boyligi talabalarga energiya va yo'nalish beruvchi omillarni chuqur tushunishga yordam beradi. Tillar insonlar bilan munosabat o'rnatish, ko'nikmalarni rivojlantirish, yangi muhitga moslashish va shaxs sifatida o'sish uchun o'rganiladi. Shu bilan birga, til o'rganish jarayoni qiyin, uzoq muddatli, ba'zan ruhiy tushkunlik, bezovtalik yoki zerikishga olib keladigan jarayon bo'lishi mumkin. Ammo motivatsiya o'rganishda asosiy muammo – bu uning vaqt davomida qanday o'zgarishini tushuntirishdir. Umuman olganda, motivatsiya – talabaning faolligi va say-harakatini shakllantiradigan asosiy omildir.

Motivatsiya faqatgina shaxsiy xususiyat emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlar ta'sirida rivojlanib boruvchi jarayondir. Tadqiqotchilar motivatsiyani oddiy sabab-oqibat modeli orqali emas, balki dinamik tizimlar yondashuvi bilan tushunishni taklif qiladilar, chunki bir xil muhit yoki o'qitish strategiyasi turli o'rganayotganlarga har xil ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu murakkablik ta'lim amaliyotida muhim ahamiyatga ega.[1]

Raqamli texnologiyalar ushbu dinamikani boshqarishda yordam beradi, ya'ni moslashtirilgan (adaptiv) dasturlar, darajaga qarab material tanlash, individual fikr-mulohazalar berish imkoniyati motivatsiyani kuchaytiradi. Shuningdek, raqamli platformalarda interaktiv testlar, o'yinlashtirilgan vazifalar va real hayotga yaqin audio materiallar talabalarning qiziqishini oshiradi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini takomillashtirishda quyidagi raqamli vositalar samarali hisoblanadi:

- Podkastlar va audiokitoblar;
- Interaktiv video platformalar;
- Sun'iy intellekt asosidagi til o'rganish ilovalari;
- Onlayn test va viktorinalar;
- Subtitrlar va videolar va audio materialning tezligini boshqarish imkoniyati.

Ushbu vositalar talabalarga real nutq namunalari bilan ishlash, talaffuzni tushunish va turli aksentlarni farqlash imkonini beradi. Eng muhimi, ular o'quv jarayonini qiziqarli va shaxsga mos shaklda tashkil etadi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini raqamli texnologiyalar orqali takomillashtirish juda samarali bo'lsada, til ta'limida o'qituvchining rolini inkor etib bo'lmaydi. Shu o'rinda, S.Thompson o'qituvchilar talabalarning til o'rganish jarayonida motivator sifatida juda muhim rol o'ynaydi va ular quyidagi bajarishlari lozim deb ta'kidlaydi:

Qiziqarli va qiyin materiallarni taqdim etish: talabalarni qiziqtiradigan va ular uchun munosib darajada murakkab bo'lgan materiallardan foydalanish orqali ularning motivatsiyasini saqlash kerak; **Rag'bat va fikr-mulohaza berish:** maqtov va konstruktiv mulohazalar talabalarga ishonch beradi va rivojlanishga yo'l ko'rsatadi; **Talabaning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash:** talabalarga o'z o'qish jarayonini nazorat qilish imkonini berish: tanlov, fikr yuritish va o'zini baholash orqali; **Har bir talabani shaxs sifatida ko'ra olish:** talabalarning individual ehtiyojlarini tushunish va mos ravishda javob berish, ya'ni ehtiyojlarni baholash, o'quv uslubi va strategiyalar bo'yicha so'rovlar hamda jurnal yozish; **Fikr yuritish uchun vaqt ajratish:** dars jarayonida talabaning o'z o'rganish jarayoni haqida

o'ylab ko'rishlari va baholashlari uchun vaqt berish; ***Turli o'quv faoliyatlarini taklif etish:*** turli o'quv uslublarini e'tirof etish va turli strategiyalar va mashg'ulotlarni qo'llash, shuningdek, talabalarga ular uchun qaysi usul yaxshiroq ishlashini aniqlash imkonini berish.[4]

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, tinglab tushunish ko'nikmasini takomillashtirish jarayonida motivatsiya asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. U talabaning energiyasi, qat'iyati va muvaffaqiyatga erishish darajasini belgilaydi. Motivatsiya nafaqat shaxsiy xususiyat, balki ijtimoiy va madaniy kontekstlar ta'sirida shakllanuvchi dinamik jarayondir. Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular talabalarning avtonomiyasini oshiradi, kompetentlik hissini mustahkamlaydi va ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida motivatsiya va texnologiya uyg'unligi tinglab tushunish ko'nikmasini samarali rivojlantirishini ta'minlaydi. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim tizimida motivatsiyani chuqur tushunish va raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish xorijiy til o'qitishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, H.D., and Lee, H. (2015). Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy (4th ed.) Pearson Education, Inc. 685p. pp.108-110
2. Cole, D., Ellis, C., Mason, B., Meed, J., Record, D., Rossetti, A., Willcocks, G. (2007). Teaching speaking and listening: A toolkit for practitioners. England: Portishead Press, Briston.
3. Gregersen, T. and MacIntyre P.D. (2014). Capitalizing on Language Learners' Individuality: From Premise to Practice, Bristol: Multilingual matters, 285p. p.p.133-135
4. Gulyamova, M.X. (2019). Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. (PhD dissertatsiyasi). 262b.
5. Hakim, L.N., and Suniar, Y. (2019). Socio-affective strategies in enhancing students' speaking motivation. Jurnal Basis, 6(1), pp.125-133, <https://doi.org/10.33884/basisupb.v6i1>
6. Jalolov, J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi, "O'qituvchi" NMIU, 429b.
7. Seli, H. (2024). Motivation and learning strategies for college success: A focus on self-regulated learning (7th ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781003385271>, 305p.
8. Thompson, S. (2005) The "Good Language Learner", University of Birmingham, 30p. p.18